

Mohira MATNAZAROVA
Urganch davlat universiteti
"Tarix" kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: matnazarovamokhira1991@gmail.com
Tel: 94 230 47 41

UrDU dotsenti, t.f.d. Abdullayev U.I. taqrizi asosida

ELEMENTS OF EARLY STATE FORMATIONS IN STOCK RAISING TRIBES

Annotation

With the development of society, people need to unite and act together. The formation of a state system is considered a vital necessity. Many nomadic tribes of Central Asia had a tribal system of government. The article shows that the first elements of statehood in pastoral tribes manifested themselves in a union of tribes, that is, in a confederation, and in a confederation, shepherds jointly guarded their livestock, their pastures, and had the opportunity to occupy new pastures. Using the example of nomadic pastoralists, the question of the first elements of statehood is analyzed.

Key words: nomadic confederation, title "Khakan", tribal union, nomadic tribes, early Iron Age.

ЭЛЕМЕНТЫ РАННЫХ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАНИЯХ В ПЛЕМЕНАХ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ СКОТОВОДСТВОМ

Аннотация

С развитием общества людям необходимо объединяться и действовать сообща. Формирование государственного строя считается жизненной необходимостью. Многие кочевые племена Средней Азии имели родоплеменную систему управления. В статье показано, что первые элементы государственности в скотоводческих племенах проявлялись в союзе племен, то есть в конфедерации, а в конфедерации пастухи совместно охраняли свой скот, свои пастбища, имели возможность занимать новые пастбища. На примере кочевников-скотоводов анализируется вопрос о первых элементах государственности.

Ключевые слова: кочевая конфедерация, титул «хакан», племенной союз, кочевые племена, ранний железный век.

CHORVACHILIK BILAN SHUG'ULLANGAN QABILALARDA ILK DAVLATCHILIK ELEMENTLARI

Annotatsiya

Jamiyat taraqqiy etishi bilan insonlarning birlashib, birgalikda harakat qilishi talab qilina boshlanadi. Davlatchilik tizimining shakllanishi bu hayotiy ehtiyoj sanaladi. O'rta Osiyodagi ko'pgina ko'chmanchi qabilalarda qabilaviy boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan. Maqolada chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarda ilk davlatchilik elementlari qabilalar ittifoqi, ya'ni konfederatsiyada namoyon bo'lganligi, konfederatsiyada chorvadorlar birgalikda chorvalarni, o'z yaylovlarni himoya qilganlar va yangi yaylovlarni egallash imkoniyatiga ega bo'lganligi keltiriladi. Davlatchilikning ilk elementlari masalasi ko'chmanchi chorvadorlar misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ko'chmanchilar konfederatsiya, "xoqon" unvoni, qabilalar ittifoqi, ko'chmanchi qabilalar, ilk temir davri.

Kirish. Jamiyatning yuksalishida, uning siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanishida boshqaruv tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiy etishi bilan insonlarning birlashib, birgalikda harakat qilishi talab qilina boshlanadi. Bu ularning tinch va to'qin hayot kechirishlari kafolatlari sanaladi. Turli bosqinchilik harakatlaridan himoyalanishda, hududlarni kengaytirishda ham boshqaruv tizimining ahamiyati muhim. Boshqaruv tizimi bu hududlarda shakllangan davlatchilik tizimi bilan bog'liq. Davlatchilik tizimining shakllanishi bu hayotiy ehtiyoj sanaladi. Chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarda ilk davlatchilik elementlari qabilalar ittifoqida, ya'ni konfederatsiyada namoyon bo'lgan. Konfederatsiyada chorvadorlar birgalikda chorvalarni, o'z yaylovlarni himoya qilganlar va yangi yaylovlarni egallash imkoniyatiga ega bo'lganlar. Chorvadorlar orasida o'zining aqliy qobiyatni, tadbirkorligi, harbiy mahorati bilan ajralib chiqib, aholini birlashtira olgan, hayotiy muammolarining yechimini to'g'ri topgan va aholisini birlashtira olgan inson qabila boshlig'i bo'la olgan. Chorvadorlar yashagan hududlarning tabiiy sharoitni og'ir bo'lgan. Ularning eng katta muammosi chorvaga yetarli sharoit yaratish, ya'ni mo'l ozuqa bilan ta'minlash va ularni qishdan eson-omon chiqarib olish bo'lgan. Ular ko'plab yirik shohli chorvaga ega bo'lganliklari sababli bu muammo ular uchun hayot mamot masalasi hisoblangan.

Ko'chmanchilar konfederatsiyasi - bu o'z hayotining turli jabhalarida birga yashaydigan va hamkorlik qiladigan turli ko'chmanchi qabilalarning ittifoqi yoki birlashmasi hisoblanadi. Bunday konfederatsiyada turli qabilalar birgalikda ovchilik, oziq-ovqat yig'ish, savdo-sotiq, tashqi tahdidlardan himoya qilish, shuningdek, o'zaro munosabatlarni tartibga solish, nizo va nizolarni hal qilishlari mumkin. Konfederatsiya o'z boshqaruv tizimi va qonunchiligiga, shuningdek, umumiy urf-odat va an'analarga ega bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'chmanchi chorvadorlar orasida eng yuqori unvon "xoqon" unvoni hisoblangan. U Markaziy Osiyoda qadimgi va o'rta asrlarda ishlatalig'an. E.Pulliblank va boshqa olimlarning tadqiqotlarida "xoqon" unvoni "hu-yu" (vah-va) tarzida miloddan avvalgi I-asrda hunlар tomonidan ishlatalig'an deb ko'rsatilgan. Xitoy manbalarida esa, birinchi marta xiyambi qabilasiga nisbatan milodiy III asrdan ishlatalig'an. Ilk o'rta asrlarda bulg'or, xazar, ko'k turk, uyg'ur, pecheneglarda ishlatalig'an. Qipchoq urug'-qabila birlashmalari, kimaki (kimeklar) va qoraxoniylar "kan" (xon) unvonini bilan birgalikda ishlatalig'an.

B.N.Grakov skiflar qabilalari ittifoqi mil.avv. VII asrning birinchi yarmida vujudga kelgan deb ko'rsatishgan [3]. Bu davrda ularni qon qarindoshlik asosida birlashgan. Mil.avv. V asrning oxirlariga kelib, harbiy – demokratik tuzum shakllangan, bunda qabila boshliqlarining yakka hokimligi o'rnatilgan. IV asrning boshlarida ularda ilk davlatchilik elementlari shakllangan. A.M.Xazanov skif-sak qabilalarning ijtimoyi siyosiy hayot tarzini tahlil qilib, ularda urug'chilik tuzumining an'analari saqlanib qolganligini qayd etgan [8]. Bu davrda olib borilgan tadqiqot ishlarida ko'chmanchi qabilalarning ijtimoyi tuzumi sinifiylik jihatdan yoritilgan va quidorlik tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi qayd etilgan [7].

Tahlil va natijalar. Qadimgi davrda ko‘chmanchi chorvadorlarda konfederatsiya bilan bog‘liq unvonlarning atamalari saqlanib qolmagan. Yozma manbalarda sak va massagetlar haqida berilgan ma’lumotlar asosida ularda ham oliy hukmdor, ya’ni podshoh va malika bo‘lganligini asoslashimiz mumkin.

V.N.Yagodin fikricha, ahamoniylargacha bo‘lgan davrda shakllangan davlatchilik kichik hududlarni o‘zida birlashtirgan. Bunda qabila sardori o‘z atrofidagi qabiladoshlarni birlashtirib, ularni ma’lum qonun va qoida asosida boshqargan. Asta—sekin uning hududni boshqarishdagi roli oshib borgan va u hukmdor “podsho” darajasigacha ko‘tarilgan [9]. Lekin davlat boshqaruvida qabila sardorlari kengashining roli pasaymagan. Polien asarida Doro I ning saklarga qarshi jang boshlagandan keyin sak podsholari Saksafar, Omarg, Famirlar unga qarshi qanday jang qilishni maslahatlashish uchun cho‘l ichikarisiga kirib ketishganligi haqida yozib qoldirgan [6]. Keyinchalik ular huzuriga cho‘pon Shiroq kelib, o‘zining taklifini bergan.

Ilk temir davrida sak va massaget qabilalar ittifoqi mavjud bo‘lganligi, ularni podsholar tomonidan boshqarganligi yunon yozma manbalari asosida yoritilgan. Sak va massagetlarda hukmdorlik asosan, bir urug‘da saqlanib qolgan. Agar podsho vafot etsa, uning o‘rniga uning rafiqasi tayinlangan. Buni Ktesiyda berilgan malika Zarina va Geradot asarida berilgan malika To‘maris asosida ko‘rshimiz mumkin.

Ktesiy asarida saklar malikasi Zarinaning faoliyati xaqida ma’lumot mavjud. Unda Zarina qabila boshlig‘i sifatidagi emas, balki Midiyaga bo‘lgan munosabati va atrofidagi boshqa sak qabilalarini birlashtirib yirik davlat tashkil qilganligi yozib qoldirilgan. Midya podshosi Astibar davrda parmlar Midya hukmronligidan chiqib saklarga tobe bo‘lganlar. Bu esa midya va saklar o‘rtasida uzoq va qonli janglar boshlanib ketishiga olib kelgan. Oxirida tinchlik shartnomasini tuzish bilan yakunlangan. Bu fikrlar ko‘chmanchi chorvadorlar bilan qo‘sni davlatlar o‘rtasi o‘zarо diplomatik aloqalar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shu davrda saklarni malika Zarina boshqargan. Zarina jangovor ayol bo‘lib, mardligi va uddabironligi bilan boshqa sak ayollariga nisbatan yuqori mavqeiga ega bo‘lgan. Ktesiy ma’lumoticha, Zarina turmush o‘rtog‘i va akasi vafot etgach, hokimiyatni boshqarish uning zimmasiga o‘tgan. Unga bo‘ysunishni istamay, hokimiyatni qo‘lga olishga intilgan boshqa sak qabilalarini o‘ziga quroq kuchi bilan bo‘ysundirgan. Mamlakatning katta qismimi o‘ziga bo‘ysundirib, birlashtirgan, obodonlashtirish ishiga alohida ahamiyat qaratgan. Ko‘plab shaharlar qurbanligi va o‘z xalqi uchun baxtli hayot yaratganligi yozib qoldirilgan. Ktesiyning bu ma’lumoti o‘troqlashgan chorvador saklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Geradotning “Tarix” asarida ham shunga o‘xshash voqeа bayon qilingan: “Massagetlar malikasi marhum podshohning xotini edi. Uning ismi Tomiris. Kir uni o‘ziga xotini qilmoqchi bo‘lib, sovchilik bahonasida unga elchilar yubordi. Biroq, Tomiris Kir niyatini bilib, ya’ni uning massagetlar yurtiga egalik qilmoqchi bo‘lganligini anglab, rad qildi” [1]. Bu jarayonda ham qabilalar boshlig‘i vafot etsa, uning o‘rnini egallaydigan o‘g‘il farzand bo‘lmasa, podshohning rafiqasi boshqarganligini ko‘rshimiz mumkin. Bu esa, ko‘chmanchilar davlatida hokimiyatni boshqarishda erkak va ayolga bir xil munosabat bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga oilaviy birlashuvlar ham davlatlarning bir-biriga qaramiligiga olib kelgan. Buni ham Ktesiy ma’lumotidagi parnlarning Midya hukmronligidan chiqib, saklarga qaram bo‘lganligi va Midiyaliklarning saklarga qarshi harakatida ko‘rinadi. Ktesiyning yozishicha, Zarina birinchi turmush o‘rtog‘i sak Kidreya vafot etgach, parfiya knyazi Mermega tushmushga chiqadi. Parfiyaliklarning midiyaliklar ajralib, Saklar bilan birlashishiga ham shu sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin [2]. Midya podshosi Striangey parfiyaliklarga qarshi yurishida Zarina ham ishtirot etgan. Zarina mag‘lubiyatga uchrab, yarador bo‘ladi. Qochib ketayotgan vaqtida uni Striangey ta’qib qilib borib otdan yiqitadi. Zarinaning iltijolari, yoshligi va go‘zalligini ko‘rib qo‘yib yuboradi. Mermer yetib kelib, Striangeyni asirga oladi va o‘limga mahkum qiladi. Zarina uni avf qilishni so‘raydi. Mermer uning so‘zlariga e’tibor qilmagach, Zarina, bir necha asirlar yordamida Striangeyni ozod qiladi, Mermerni esa, o‘ldiradi. Parfiyani Midiyaga qaytaradi. Shundan keyin Midiyaliklar va saklar o‘rtasida do’stona munosabatlar o‘rnataladi.

Geradot asarida berilgan Kir II ning To‘marisga sovchi yuborishi masalasi ham davlatlarni birlashtirish g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lgan. Qarindoshlik asosida davlatlarni birlashtirish masalalari keyingi davrlarda ham jahon taraqqiyotida keng qo‘llanilgan. Bu g‘oya davlatlar o‘rtasida do’stilk munosabatlarini o‘rnatalishda yoki birlashishda qo‘llanilgan.

Chjan Syanning ta‘kidlashicha, Da-yuechji qabilalari aslida ko‘chmanchi qabilalar bo‘lib, yangi joylar aholisi madaniyxo‘jalik ta‘sirida o‘troqlashgan va qisman chorvachilik xo‘jaligi bilan ham shug‘ullanadilar. Yuechjilar haqidagi Chjan Syan xabarlarini mil. avv. 126 yilgacha bo‘lgan ma’lumotlar bo‘lib, u kezlerda yuechjilar Guyshuan (To‘xor) qabilasi yetakchiligidagi hali yagona davlatga birlashmagan edi. Shuning uchun elchi keltirgan ma’lumotlarda: “Dayg‘iada yagona davlat boshlig‘i yo‘q, har bir shahar o‘z hokimi tomonidan boshqariladi”. “Dayg‘iada 5ta patriarchal knyazlik xonadonlari (Xumi, Shuanmi, Guyshuan, Xise va Dyumi) mayjud” [2]. Chjan Syan Dayg‘ia (Daxy) va Dayyuan (Davan)da: “Erkaklar o‘z qarorlarida xotinlari bilan maslahatlashadilar” [2] deb xabar beradi. Aholiniн turmush tarzi va urf-odatlari haqida: “Dayg‘iada o‘troq hayot kechiradilar, shaharlari bor va uylarda yashaydilar, urf-odatlari bo‘yicha dayyuvalilarga o‘xshab ketadi; qo‘shini kuchsizroq, lekin jangda chaqqon va chabdast. Aholisi savdoda ustamon. Dayg‘iada aholi soni millionga yetadi. Poytaxti Lanshi deb ataladi. Bu shaharning xilma-xil tovarlarga boy bozori bor” [4] deb yozadi.

Saklar tomonidan tashkil qilgingan Qang‘ va Kushon davlatlari ko‘chmanchilar tomonidan tashkil qilgingan.

Qadimgi Xorazm davlatining shimoli, shimoli-sharqi, shimoli- g‘arbi, janubi va janubi -sharqi hududlari yashagan va ko‘chib yurgan ko‘chmanchi qabilalar tomonidan qoldirilgan mozor -qo‘rg‘onlar orasida yirik hajmda qurilganlari bo‘lgan. Ularga mayitlar qimmatbaho toshlar, oltin, kumush buyumlar bilan dafn etilgan. Bu o‘sha davr aholisi o‘rtasida tabaqalanishning bo‘lganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomonidan hukmdorlarga tegishli bo‘lishi mumkinligini ham ko‘rsatadi. Bularga misol qilib, Tegesken mozor-qo‘rg‘onlari, Chirik -Rabol, Tumeq-Kichijik, Kazibaba I, Tarmqoya, Jeti asar hududlarini ko‘rsatimiz mumkin. Jeti asar qal‘asining atrofida 200 ga yaqin juda katta qilib qurilgan mozor-qo‘rg‘onlar aniqlangan [5]. Yirik tarzda bunyod etilgan mozor-qo‘rg‘onlarda vafot etgan odam bilan birlashikda uning rafiqasi, xizmatkorlari, jangchilar, otlari va buyumlari bilan dafn etilgan. Bunday qabrlarda ko‘plab qimmatbaho toshlar, oltin va kumushlar qo‘yilgan. Shu sababdan mozor-qo‘rg‘onlar o‘sha davrning o‘zidan o‘g‘irlab ketilgan. Buzilmasdan saqlanib qolgan mozor-qo‘rg‘onlar tasodifan topiladi. Ular esa, ko‘chmanchilarining turmush tarzi haqida to‘liq ma’lumot berishi mumkin. Ba’zi saqlanib qolgan moddiy buyumlar bundan guvohlik beradi. Ko‘chmanchi chorvadorlarda dafn etish urf odatlari deyarli o‘zgarmagan. Uzoq yillar davomida bir xil saqlanib kelgan.

Uzboy daryosi bo‘ylab ko‘plab ko‘chmanchi qabilalarning mozor-qo‘rg‘onlari va yirik tarqoq xoldagi manzilgohi topilgan. Ular mil.avv. IV asrdan milodiy IV asrlarga oid bo‘lib, qo‘lda qo‘pol tarzda ishlangan sopol idishlar topilgan. Mozor-qo‘rg‘onlari tosh sag‘ana bo‘lib, ko‘p marotaba mayitlar dafn qilgingan. Bu jarayonida ular tuproq bilan ko‘milmagan. Milodiy era boshlariga kelib, ularda yirik sopol idishlarni suyakdon sifatida ishlata boshlaganlar [10]. Uzboy bo‘yida mil.avv. V-II asrlarga oid bo‘lgan Ichyanlitepa ibodatxona vazifasini bajargan. U ko‘chmanchi qabilalarning katta mozor-qo‘rg‘oni Dordulning markazida joylashgan. Ichyanlitepada charxda ishlangan sopol buyumlar ham topilgan bo‘lib, u Kavkazorti hududlaridan olib

kelishganligi aniqlangan. Quyi Uzboy bo'yida Kelkorning shimoli-g'arbiy qirg'og'ida tarqoq ko'chmanchilarining qarorgohi 1982 yilda aniqlangan. Bu yerdan uch parrakli bronzadan ishlangan va temirdan ishlangan yaproqsimon o'q uchlari, yorg'uchchoqlar, teriga ishlov beradigan toshlar topilgan. Bu manzilgohdan uncha uzoq bo'limgan yerda, mozor-qo'rg'on topilgan. Unda chuqurchaga meridional ko'milgan va idishga ko'milgan mayitlar topilgan. Manzilgoh va mozor-qo'rg'on mil.avv.IV-II asrlarga oid Uzboy bo'yidagi moddiy topilmalarga o'xshaydi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, O'rta Osiyoning ko'chmanchi qabilalarini boshqarish qabilaviy boshqaruv, siyosiy tuzilmalarining harakatchanligi, uyushqoqligi va moslashuvchanligi hamda diniy va an'anaviy urf-odatlar asosida qurilgan.

ADABIYOTLAR

1. Герадот. I. 205.
2. Григорьев В.В. О скифском народе саках. -С.20-21.
3. Граков Б. Н. Скифы: научно-популярный очерк. – М.: Изд-во МГУ. 1971.
4. История народов Узбекистана. Том I. 1950, -С.112.
5. Левина Л.М. Этнокультурная история восточного Приаралья. I тысячелетие до н.э. - I тысячелетие н.э. -М.: 1996. - С.68.
6. Полиен. Стратагема. VII китоб XI бўлим 6,8.; Григорьев В.В. О скифском народе саках. -СПб. 1873. -С.16.
7. Хазанов А. М. О характере рабовладения у скифов. // ВДИ. 1972. № 1. – С. 159–170.
8. Хазанов А. М. Социальная история скифов. – М.: Наука, 1975.
9. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. – С. 125.
10. Юсупов Х. Археологические памятники Узбоя и проблема водного пути из Индии в Каспий. / Туркменистан в эпоху ранножелезного века. – Ашхабад: Йлым. 1984. -С.91-92.